

Toshkent shahrida Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy ko'rsatkichlari


2025-yil yanvar-mart oylari uchun

- I. Toshkent shahrida kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot
- II. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar
- III. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari
- IV. Kichik tadbirkorlik subyektlari transport faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari
- V. Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari natijalari
- VI. Kichik tadbirkorlik subyektlari statistikasi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Toshkent shahrida kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot

2025- yilning 1-aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni 87,6 mingtani tashkil etdi.

Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi¹




¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022- yil 20-apreldagi PF-113-son Farmoniga asosan, davlat organlarida mavjud ma'lumotlar bazalarining dolzarbligini va statistik axborotlarning bir xilligini ta'minlash

Toshkent shahar tumanlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

	2024- yil 1- aprel holatiga, birlik	2025-yil 1- aprel holatiga, birlik
Uchtepa tumani	7 263	6 834
Bektemir tumani	2 471	19 967
Yunusobod tumani	10 381	10 352
Mirzo-Ulug'bek tumani	10 242	10 202
Mirobod tumani	7 412	7 243
Shayhontoxur tumani	7 861	7 749
Olmazor tumani	8 360	8 087
Sirg'ali tumani	5 110	5 346
Yakkasaroy tumani	7 842	8 030
Yashnobod tumani	7 747	7 937
Yangiheyot tumani	2 507	3 181
Chilonzor tumani	10 417	10 089
Toshkent sh.	87 613	87 693

Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni




maqsadida Soliq qo'mitasi, Statistika agentligi va Adliya vazirligining davlat ro'yxatidan o'tgan yuridik shaxslar haqidagi ma'lumotlar bazalari to'liq xatlovdan o'tkazildi va aniqlangan farqlar birxillashtirildi

II. Toshkent shahrida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

2025- yilning yanvar-martida 4 407 ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi.

2025- yilning yanvar-martida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirma savdo sohasida 1 629 ta, sanoatda 361 ta, boshqa xizmatlarda 1 069 ta hamda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 37 ta tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni



Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni


	2024- yil yanvar-mart oylarida, birlik	2025-yil yanvar-mart oylarida, birlik
Uchtepa tumani	304	264
Bektemir tumani	94	116
Yunusobod tumani	448	562
Mirzo-Ulug'bek tumani	468	457
Mirobod tumani	316	334
Shayhontoxur tumani	335	407
Olmazor tumani	377	361
Sirg'ali tumani	262	268
Yakkasaroy tumani	362	420
Yashnobod tumani	378	467
Yangiheyot tumani	194	304
Chilonzor tumani	437	447
Toshkent sh.	3975	4407

III. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi dinamikasi

2025- yilning yanvar-martida YAHM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 48,9,% ni tashkil qilib, 2024- yilning tegishli davriga nisbatan 5.1% ga kamaygan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi dinamikasi



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarining YAIMdagi ulushi


2025- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng yuqori ulushi qurilishda – 70,3 %, xizmatlar sohasida – 38,8 % va sanoatda – 32,8,% ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan sanoat ishlab chiqarishi faoliyati

2025-yil yanvar-mart oylarida Toshkent shahrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 34 575,1 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi yoki sanoat ishlab chiqarishi umumiy hajmining 32,8 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar-mart oylariga nisbatan 104,6 % ni tashkil qildi.

Tumanlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotlaridagi eng yuqori ulushi Yunusobod tumani (60,3%), Olmazor tumani (58,4%), Uchtepa tumani (44,8 %), Chilonzor tumani (39,1,%) va Yakkasaroy tumani (36,9 %) hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat ishlab chiqarishi hajmi va jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi dinamikasi




Toshkent shahrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish faoliyati

2025- yil yanvar-mart oylarida Toshkent shahrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi 9 664,3 mlrd so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining 70,3 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024-yil yanvar-mart oylariga nisbatan 122,0 % ni tashkil qildi.

Tumanalar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari umumiy hajmidagi eng yuqori ulushi Sirg'ali tumani (90,5 %), Mirzo-Ulug'bek tumani(89,0%) va Yashnobod (85,7 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

Toshkent shahrida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya faoliyati

2025- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 9 993,9 mlrd so'mni yoki

umumiy hajmidagi ulushi 59,2 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar-mart oylariga nisbatan 130,5 % ni tashkil qildi.

Tumanalar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmidagi eng yuqori ulushi Olmazor tumani (94,2 %), Uchtepa tumani (84,5 %), Mirzo-Ulug'bek tumani (77,9 %) va Yashnobod (69,6 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Toshkent shahrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan chakana savdo faoliyati

2025- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning chakana savdo aylanmasi hajmi 15 017,8 mlrd so'mni yoki umumiy hajmining 60,4,% ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar-mart oylariga nisbatan 109,4 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasidagi eng ko'p ulushi Bektemir tumani (88,0,%), Uchtepa (83,4 %), Uchtepa tumani (73,1 %) va Chilonzor (73,1 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

Toshkent shahrida kichik tadbirkorlik subyektlari chakana savdo aylanmasining hajmi va jami savdo aylanmasidagi ulushi dinamikasi




Toshkent shahrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan xizmatlar faoliyati

2025- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning xizmatlar sohasidagi hajmi

31 122,0 milliard so'mni yoki umumiy hajmining 38,8 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 108,1 % ni tashkil qildi.

Tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar hajmidagi eng ko'p ulushi Yangiyo'q tuman (80,5 %), Bektemir tumani (52,2 %), Mirzo-Ulug'bek , Mirobod hamda Yakkasaroy tumanlari (47,1 %), va Sirg'ali (46,5 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Toshkent shahrida kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

2025- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 239,6 mln AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining 21,3 % ini tashkil etdi.

2025- yilning yanvar-martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Yashnobod tumani – 86,5 %, Chilonzor tumani – 66,0 %, Mirobod tumani – 62,4 %,ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) eksporti hajmi va jami eksport hajmidagi ulushi dinamikasi




Toshkent shahrida kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

2025- yilning yanvar- martida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi 18 963,9 million AQSH dollarini yoki jami importning 48,6 % ini tashkil etdi.

2025- yilning yanvar-martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi Surxondaryo viloyatida – 91,1 %, Sirdaryo viloyatida – 84,2 %, Farg'ona viloyatida – 82,3 %, Qoraqalpog'iston Respublikasida – 69,7 %, Qashqadaryo viloyatida – 69,0 %, Namangan viloyatida – 67,6 %, Buxoro viloyatida – 60,3 % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) import hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi



IV. Toshkent shahrida kichik tadbirkorlik subyektlari transport faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining yuk tashish umumiy hajmidagi ulushi


2025- yilning yanvar-martida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 50,4 % ni tashkil etdi. 2024- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 105,0 % ni tashkil qildi.

2025- yilning yanvar-martida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 75,2 % ni tashkil etgan bo'lib, 2024-,yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 105,5 % ni tashkil qildi.

2025- yilning yanvar-dekabrida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 90,6,% ni tashkil etib, 2024- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 103,6,% ni tashkil qildi.

2025- yilning yanvar-dekabrida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 95,0 % ni tashkil etib, 2024- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 103,7 % ni tashkil qildi.

Toshkent shahrida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami transport faoliyatlaridagi ulushlari dinamikasi




v. Toshkent shahrida kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari natijalari

Umumiy iqtisodiy holatining baholanishi (korxonaning joriy holati bo'yicha)

Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlariga ko'ra kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar ulushi 2021-yilning yanvar-martida 14,1% ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2025- yilning yanvar-martida esa 32,6 % ga yetgan yoki 2021- yilning yanvar-martida nisbatan 18,5 birlikka ko'paygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning ulushi 2021- yilning yanvar-martida 80,3 % bo'lgan bo'lsa. Bu ko'rsatkich 2025- yilning yanvar-martida 58,3 % ni tashkil qildi. O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2021- yilning yanvar-martida 5,6 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2025- yilning yanvar-martiga kelib, bu ko'rsatkich 9,1 % ga yetgan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning yanvar-mart oylarida umumiy iqtisodiy holatining baholanishi dinamikasi (korxonaning joriy holati bo'yicha)




Umumiy iqtisodiy holatning baholanishi (yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli)

Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari to'g'risida o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli yaxshilanadi deb baholagan korxonalar ulushi 2021- yilning yanvar-martida 44,3 % ni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich 2025- yilning yanvar-martida 45,0 % ni tashkil qildi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarmaydi deb baholagan korxonalarning ulushi 2021- yilning yanvar-martida 47,5 % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2025- yilning yanvar-martida 50,7 % yoki 3,2 birlikka oshgan. O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashadi deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2021- yilning yanvar-martida 4,4,% ni tashkil etgan bo'lsa, 2025- yilning yanvar-martiga kelib, bu ko'rsatkich 4,3 % ni tashkil qildi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning yanvar-mart oylarida umumiy iqtisodiy holatining baholanishi dinamikasi (yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli)




Kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatni baholash


Kichik korxona va mikrofirmalarning 2025- yilning I choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatini qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 38,8 % qurilishda – 34,2 % ni, xizmatlar sohasida – 33,9,% ni va savdo sohasida – 31,1,% ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi sanoat sohasida – 60,1 % ni va savdo – 59,7 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi qurilishda – 13,6 % ni, savdo sohasida – 9,2 % ni tashkil etdi.



Biznesga ishonch muhitini baholash (o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar)





V. Kichik tadbirkorlik subyektlari statistikasi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

Tadbirkorlik faoliyati subyektlari (tadbirkorlik subyektlari) belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tgan hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslardir.

Tadbirkorlik subyektlari o'z faoliyatlarini muvofiqlashtirish, shuningdek, o'z huquqlari va manfaatlarini ifoda etish hamda himoya qilish maqsadida, notijorat tashkilotlar bo'lgan uyushmalarga (ittifoqlarga) va boshqa birlashmalarga birlashishi mumkin.

Metama'lumot uchun havola:

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/2977/Korxonalar-va-tashkilotlar-soni.pdf>
<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1918/Kichik-biznes-korsatkichlari.pdf>
<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1917/Kichik-biznesning-tarmoqlar-bo-yicha-ulushi.pdf>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Tadbirkorlik subyektlarini
kuzatuv boshqarmasi

Ijrochi:
Sh. Axmedov
71 203-80-00 (1145)

Manzil:

